



## MA'RIFATPARVARLIK, DANIEL DEFO VA ROBINZON KRUZO

**Karomatov Akbar Abrammat o'g'li**

*CHDPI Gumanitar fanlar fakulteti 2-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar f.f.n,dotsent*

**T.SABITOVA**

**Anotatsiya:** *Yevropa ma'rifat parvarligi davrining durdona asari "Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari" qahramoni Robinzon obrazi haqida tahliliy so'z. Daniel Defoning ma'rifatparvarlik davrida "Robinzon Kruzoni" Angliya ma'rifatparvarligiga olib kirish maqsadlari haqida*


**Tayanch so'z:** *Liliputiya, Brobdinneg, Laputa, gyugnem, hayot haqiqati, ma'rifatparvarlik adabiyoti, islohotchi inikosi.*

XVIII asrdan Yevropa adabiyotining ma'rifatparvarlik belgilari bilan boyib borish kuzatildi. Adiblar ijodi yangicha tus kasb etgan holda asarlarning bayon qilish uslubi, mavzularining ko'lamdorligi yana ham ortdi. Yevropa ma'rifatparvarligi davri turli-tuman mavzularda yozilgan asarlari bilan adabiyotining noyob durdonalarining safini boyitdi va dunyo kitobxonlariga taqdim etdi. Bu asarlarning barchasida Shaxsni ilmi va ma'rifatli qilish va jamiyatga dahldor qilib tarbiyalash qarashlari olib chiqildi. Umuman olganda ma'rifatparvarlik davri adiblari insonni ma'naviy boy va fitratli ko'rishni istashdi. Yevropa ma'rifatparvarligi davrining dunyoga mashhur asarlari Jonatan Sviftning "Guliverning sayohatlari", Iogan Volfgang Gyotening "Faust", va Daniel Defoning "Robinzon Kruzoning sarguzashtlari" kabi asarlari hisoblanadi. Ular Yevropa ma'rifatparvarligining turli jabhalarini yoritgan holda, Yevropa insonlarini shaxsiy rivojlanish natijasida shaxsiyatini mustahkamlash, burjuaziyaning yoki jamiyatning keng fikrli shaxsini tarbiyalash va shuning bilan insonlarni ichki taraqqiyotga harakat qilishi kerakligi tilga olinadi. Shunday asarlardan biri Jonatan Sviftning "Guliverning sarguzashtlari" asari bo'lib. Asarda tilga olingan mavzular adib yurti XVIII asr Angliya siyosiy elitasi va davlat ijtimoiy hayoti yumarlar orqali tilga olinadi. Shu bilan birga Yozuvchi atrofidagi shaxslarning qiyofasini ham asarda chizgilar bilan beradi. Asar voqealarining jadallashuvi va yozuvchi tilga olgan diniy, siyosiy mavzudagi voqealar har bir bobda o'zgacha tarzda ya'ni biridagi voqealar ikkinchisiga qarshilantirishlar bilan berib boriladi. Asar Qahramoni Guliver esa Liliputiya, Brobdinneg, Laputa, Gyugnem kabi yer sharida yo'q, to'qima davlatlarni kezadi. Nemis ma'arifatparvarligining noyob durdonasi va Iogan Volfgang Gyotening teran falsafasining mevasi bo'lgan "Faust" asari ham muhim o'rin tutadi. U o'z davrida yaratilgan asarlar orasidan shaxsning haqiqatni topishga intilishi va barchani ya'ni har bir insonni hayotning mazmunini topishga undashi bilan alohida o'rin tutadi. Asar qahramoni asar davomida hayot haqiqatiga yetishish yo'lida turli hodisalarni boshdan kechiradi, ammo u umri oxirida hayot haqiqatini anglab yetadi. Asarning bu jihati





ma'rifatparvarlik davrining tafakkurini, mavzu maqsadini aniq yoritdi. Ma'rifatparvarlikning olg'a surgan g'oyalarini o'zida aks ettirgan asarlardan yana biri Angliya ma'rifatparvarligi vakili Daniel Defo qalamiga mansub "Robinzon Kruzo" asaridir. Bu asar ham Yevropa ma'rifatparvarligi davrining durdona asari bo'lib. Asar G'arb ma'rifatparvarligi davrining maqsad va tamoyillari haqida to'laqonli xabar beradi. Robinzon Kruzo asarini o'qish davomida Yevropa ma'rifatparvarligi davrining maqsadi Robinzon Kruzo kabi tirishqoq, irodali, tadbirkor, har qanday holatda ham yashash uchun harakat qiluvchi va hunarmand, quruvchi, chorvador kabi insonlarni tarbiyalash ya'ni jamiyat shaxslarini ma'rifatga, taraqqiyotga, dunyoni anglashga undash ekanligini uqtiradi. Robinzon Kruzoning asar boshida dengiz matroslariga qiziqishi, turli o'lkalarga sayohat qilib dunyoni kezish istagi uning keyingi hayotining voqealarrini tubdan o'zgartirib yuboradi va shu jihati esa uning o'z davridagi insonlardan farqlaydi. U bir qadar sarguzashtni sevuvchi, harakatchan ma'rifatparvarlik davrining yangi bir qahramoni edi. Kruzoning kimsasiz orolda 28 yil umr kechirishi bu vaqt davomida esa u barcha sohalarni o'rganib o'zining ehtiyojlarini qondirishi ma'arifatparvarlik davrining insonni barcha narsaga qodirligi haqidagi qarashlarining talab va maqsadlarini yoritadi. Kruzoning dengizga chiqib ketishiga avvalo uning Ota-onasi qarshilik qiladi, ammo Robinzonning maqsadi va orzusi sari ishtiyoqi bu bilan so'nmaydi. Shu sabab ham Robinzon dengizga chiqadi, ammo u keyinchalik bundan afsus ham chekadi. U birinchi bor chiqqan kemaning halokati va do'stining otasi bergan maslahatga ko'ra " Yigitcha, siz bunday yurmang. Darhol uyga qaytib borib ota-onangizdan uzr so'rang. Otasining roziligini olmasdan sayohat qilgan kishi baxt topa olmaydi"(1,10-bet. Foydalanilgan adabiyotlarga qaralsin). uyga qaytishga qaror qiladi. Ammo Daniel Defoning Robinzon obrazi qiyinchiliklarga chiday oladigan, vaziyatlarda tezkor qaror qabul qila oluvchi, qarorlarida qattiyatlik biln tursada albatta, vaziyat bilan hisoblashishni ham unutmas edi. Robinzon yuqoridagi gaplardan so'ng uyga qaytishi va ota-onasidan uzr so'rashi mumkin edi, uning o'zi ham kema halokati yoqasida: "Agar omon qolsam, qadamlarim yana quruq yerga tegsa, darhol – uyga otam yoniga qaytib boraman va umrim bo'yi kema palubasiga qadam bosmayman deb, ming bor tavbalar qildim" (2,6-bet), deya shu fikrga kelgan, ammo uning nazdida qarindoshlari va qo'shnilarining hozirdan uning muvaffaqiyatsizlikka yuz tutgan sayohatini tilga olishyotganligi haqidagi o'y-fikrlari, uni sayohatga chiqishi uchun qattiyat beradi. Robinzon shu jihatlari bilan ham ma'rifatparvarlik davrining insonlari haqida tasavvur qoldiradi. Robinzon Kruzo asari Angliya adabiyotiga yangicha mavzu bo'lib qo'shildi. Undagi voqealar sarguzasht holda berilib, insonning kimsasizlikdagi hayoti qalamga olinadi. Daniel Defoning qahramoni ayni ma'rifatparvarlik davrida yolg'izlik bag'ridan insoniy his va tuyg'ularni omon saqlab chiqolgani bilan adabiy mavzular ichida o'zgacha. Robinzon kimsasiz orolda 28 yil davomida yashar ekan bu vaqt oralig'ida u o'zini ham tarbiyaladi. Kundaliklariga ovundi, shaxs sifatida harakat qilib o'zini yo'qotib qo'ymadi, aksincha u orolda butun bir kaloniya yashashi mumkin bo'lgan ijtimoiy-tuzumni yaratdi. Bu jihatlar esa Daniel





Defoning Robinzon Kruzoni nima sababdan ma'rifatparvarlik davrida dunyoga keltirgani haqidagi savollarga javobdir. Daniel Defoning "Robinzon Kruzo" nomi ostidagi qahramoni – tub o'zga fikrli insonning jamiyatda yashashi va u bu jamiyatni rivoj toptirishda hech bir kishi topmaganligi, shu boisdan ham u yolg'iz ekanligi yoritiladi. Robinzon esa bunga yakka o'zi harakat qiladi va o'zi istagan jamiyatni yaratadi. Robinzon obrazining umum ma'noda islohotchi sifatida dunyoga kelganligi Daniel Defoning ma'rifatparvarlik davri adabiyotidan ko'zlagan maqsadi edi. Robinzon esa bu maqsadlarning badiy adabiyotdagi inikosi bo'lib yaralgandi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari" (Rus tilidan Yo'ldosh Shamsharov tarjimasi), "Ilm-ziyo-zakovat" Toshkent 2019.
2. Robinzon Kruzoning hayoti va ajoyib sarguzashtlari (Rus tilidan Yo'ldosh Shamsharov tarjimasi), "Ilm-ziyo-zakovat" Toshkent 2019.

